

MEHNAT

Muqimova Visola

Namangan davlat chet tillar instituti

Til va tarjima fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti yo`nalishi talabasi

Tun. Chorpo'lat qishlog'ining dalaga tutashib ketgan so'l tomonidan og'ir aravalarga o'rinlarni ortib 3 aka-uka - Anvar, Abbos va Asliddin sudralgancha, biri aravaning orqa tomonidan itarsa, ikki kishi oldindan tortqilab uni bazo'r yetaklab kelishadi. Ulardan sal orqaroqda mehnatkash Sodiq ota qora terga botib, marhum otasidan qolgan velosipediga tog' ko'tarsa qulagudek o't-o'lanni ortib olgancha xayollar og'ushida yurib boradi. Hozir bu insonlarning yagona tilagi tezroq uyiga yetib olsayu, ikki qoramolga yemish solib, tovuqlarning qornini to'ydirsa. Axiyri bir zumda uyquga bosh qo'ysa. Mana uzoqdan uyning yog'och darvozasi ko'zga tashlandi. Eshik hatlab hatlamay ota va o'g'illar o'z yumushlariga sho'ng'ib ketishdi.

Kecha Sodiq ota ikki qop bog'dagi makkajo'xori hosilini sotib, evaziga olgan guruchidan Muharram xola zulmat qorong'usi bo'lishiga qaramay o'choqboshida do'ppiday qo'lbola osh pishirib keldi. Dasturxonga ovqatni qo'yar ekan bir-bir farzandlari va choliga achingan qiyofada razm soldi.

"Bismillah, kun bo'yi qilingan mashaqqatli mehnatning halol oshi mana shunday bo'libdi, barakalla boshingiz omon bo'lsin, o'g'lonlarim"-dedi Sodiq ota taomga qo'l cho'zib. Oradan chorak soat o'tar o'tmas Bahrom idish- tovuqlarning taqqilashidanmi, yoxud xushbo'y palovning hidi dimog'iga urilganidanmi do'sti Anvarga devor ortidan savol nazar bilan yuzlandi.

- Nima qilayapsan, Anvar?
- Ovqatlanyapman, nega?
- Ovqat... ovqatmi... Haligi... men... sen o'ynaysanmi demoqchi edim.

Sodiq ota o'g'liga asta uqtirdi. Ha, kelaver, uyga kir, birga o'ynaymiz degin. Anvar xuddi shu so'zlarni do'stiga yetkazdi. Bahrom ohista yurib dasturxonga yaqin kelib o'tirdi. Uning rangi siniq, o'zi cho'pday ozg'in, ko'zlari ham dard alamdanni yoki

uyqusizlikdan ich-ichiga botib ketgan. Sodiq ota:"O'g'lim,Bahromjon ahvollaring yaxshimi,nega buncha o'zingni oldirib qo'yibsan,axir?"

- Ha,yaxshi...faqat shu kunlarda biroz tobi yo'qdek.

- Voh,voh gapniyam olmasan-da,Bahromjon sendek dastyor,chapdast bolaga dev ham urmasa keragov. Bahrom ko'zini yerdan uzmay iymani broq - Ehtimol, ammo negadir juda holsizlanib bormoqdaman, go'yo shijoatim asta-sekin so'nib borayotgandek. Kecha yarim tunga qadar otam bilan o'choq boshida bug'doydan osh pishirmoqchi bo'ldik,qozonni ancha qaynatsak ham bug'doy baribir guruch kabi pishmas ekan, shuning uchun men, singlim, otam va onam xomroq bo'lsa-da, uni yeyishga majbur bo'ldik. Mana shu shu bo'ldiyu, barchamizning holimiz tang na yeb ichishdan darak bor, na tayinli bir ishdan. Sodiq ota uning diqqat bilan tingladi, biroq allanechuk o'zidan o'zi uyalib,mulzam bo'lib qoldi. Chunki avvalari daladan o'tin tashishmi, uydagi og'irroq yumushlarning ba'zilarini otaxon qiynalibroq qolgan shu qo'shnisining o'g'liga bajartirar, shu bahona 3-4 so'm berib suyuntirar edi. Haqiqatdan, yuqoridagi ishlarni Sodiq otaning pahlavonlari bir deganda tinchitib qo'yishardi,lekin buni otaxon xohlamas edi. Hozirgina u ayoliga imo qildi. Munavvar xola esa ozroq jiyda, turshak, nimpiyola suzma, yarimta jo'xori nonini qiyiqchaga tugib Bahromga uzatdi. O'yin bahonasida do'stining oldiga chiqqan Bahromning qorni himmatpesha oila sabab to'ydi.

Erinibgina quyosh ufqdan bosh ko'targanda, yana mehnat bobo oilasi zamon mashaqqatlariga qamishdek bel bog'ladi. Munavvar xola xo'sh-xo'shlab, eti borib suyagiga yopishgan sigirini sog'moqda, Anvar qishloq boshidagi quduqdan chelak-chelak suv tashimoqda, Asliddin endi sabza urgan maysalarni 3-4 tovug'iga hozirlash bilan ovvora,Abbos jon jahdi bilan yer chopgabcha, ariqlarni suv ochishga shay qilmoqda. Yana bir dod-faryod tovushi ko'cha eshigidan uzuq-yuluq eshitildi. Munavvar xola bir seskandi-da, tashqariga otildi.Ne ko'z bilan ko'rsinki, Ma'suma buva yo'lning qoq o'rtasidan uyi tomonga sudralgancha yer tirnab borishga urinadi,biroq dard kuchida cho'kkalab cho'kkalab qoladi.Ora orada ovozinin boricha : " Yordam beringlar, yordam qilinglar !" -deb tug'yon uryapti. Zumda ko'chaga yig'ilgan hamma hayron.Onaxon esa faqat nabiram,nabiram degan so'zni bot bot takrorlash bilan ovvora. Mahalladan 3-4 kishi Ma'suma buvaning qo'llaridan tutib, uni suyagancha uyiga tomon olib borishdi. Odam tengi keladigan urinib qolgan yog'och eshik. Kiraverishda sal nariroqda qurib qolgan daraxt ostidagi tuproq aralash yerga

kigiz sholcha solingan. Uning ustida Ma'suma buvining nabirasi Musojon yerga chalqancha yotib olib, chuqur chuqur dadasi olishga intilar ediyu, nima uchundir ovozi chiqmay, allaqanday xirrilagan tovush bola bechoraning jismini jumbushga keltirar edi. Xayriyat, bu holni ziyraklik bilan kuzatayotgan Berdiboy tabib odamlarni turtib surtib Musoni yerda dast ko'tardi, qalin va chayir barmoqlarini uning tomog'iga solib, ko'kragini tizzasiga qo'ygancha yelkalari orqasiga 2-3 marotaba urgan edi, bola bechoraning tomog'idagi luqmasi og'zidan tushib ketdi. Vaziyatni mijja qoqmay kuzatib turgan mahalla ahlining yuziga birdan tabassum qalqidi. El qatori Munavvar xola ham endi atrofga ma'noli razm soldi. Boyagi qurib qolgan daraxtning orqarog'iga o'choq osilgan, qozonda lavlagi, karam yana nimalardir nomiga qaynab turibdi, ammo hali pishib ulgurmagan ekan. Qora qozon yon-verida yog'och kosa, uchi biroz zanglab qolgan qoshiq, butulkada loyqaroq suv turibdi. Daraxt shoxiga oralatib ko'p yil xizmat qilganidanmi, yo yaxshi yuvilmaganidanmi, qisqasi, aniq bir tasvirga ega bo'lmagan kiyimlar ilib qo'yilgan. Ma'suma buva nevarasini bag'riga bosib osmonning qaysidir burchaklariga termulib uzoq yig'lagani kuzatuvchilat sukunatini buzdi. "Yo'qchilik qursin, yo'qchilik! Senga lavlagi pishirib beraman degan mengina o'lay, mengina o'lay!"

Bir bolaga yetti mahalla ota-ona deganlari shu bo'lsa kerak, kimdir uyidan quritilgan meva, boshqa biri ozroq yong'oq chiqarib nabira hamda buvi o'tirgan kigiz sholcha ustiga bir-bir qo'yib ketishdi. Munavvar xola ham jim qarab turmadi. Uydin yarim qop quritilgan o'rik olib chiqdi. Lekin uyiga qaytar ekan xayollarida eri - Sodiq otadan kechirim so'rardi. Chunki otaxon ertaga shu qopni sotib ancha vaqtga yetadigan ro'zg'orlik qilib kelmoqchi edi-da... Ma'suma buvaning o'g'li ishga tobi yo'qroq. Goh gohida odamlarning kundalik yumushlarini bajarib qorin to'qlashga yetgulik arziyas choychaqa topib keladi. Ustiga ustak buvining qizi hali turmush qilmagan, kun ora to'ylarda chiqib qoladigan dasturxonchilik kasbini hisobga olmasa kelinining ham tayinli bir ishi yo'q. Onayizor erini tuproqqa topshirgandan buyon farzandlarini mehnatga bosh egdira olmayotganidan tashvishda, ammo bu kuyunchak ayolning qo'lidan nimayam kelardi?

Qani edi yoshligidagi tog'ni talqon qilgudek kuch quvvati bo'lsa-yu, mana shu nabirasini ilmga berib hunar o'rgatsa.

Essiz, urushdan keyingi yil mashaqqatlari barchaning ostonasini hatlab kirib ozmi ko'p insonlarni tutdek qoqsa-da, allanechuk Sodiq ota oilasi bundan mustasno edi.